MUSIQA FANI O‘QITUVCHILARINING KASBIY KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Ahmadjonova Malohat Abror qizi,
Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti
I-bosqich tayanch doktoranti
Telefon: +998993379296
malohatabrorovna@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari pedagogik, metodik, musiqiy-ijrochilik, kommunikativ, kreativ, refleksiv va raqamli faoliyatlarning integratsiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan, integrativ va refleksiv yondashuvlarning musiqa o‘qituvchisi kasbiy tayyorgarligidagi o‘rni ochib beriladi. Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, musiqa o‘qitish metodikasiga doir manbalar hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim va pedagog faoliyatini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlari tahlil qilindi. Muallif tomonidan kasbiy ko‘nikmalarni alohida, bir-biridan uzilgan sifatlar sifatida emas, balki “bilim – amaliy harakat – ijodiy qo‘llash – refleksiya – takomillashtirish” izchilligida rivojlanadigan yaxlit tizim sifatida talqin qilish taklif etiladi. Shuningdek, musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning tarkibiy modeli va uni baholash mezonlari asoslab beriladi. Natijada nazariy tayyorgarlikni pedagogik amaliyot, ijrochilik faoliyati, raqamli vositalar va individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi bilan bog‘lash zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi.*

Kalit so‘zlar: *musiqa ta’limi, kasbiy ko‘nikma, kasbiy kompetentlik, pedagogik mahorat, metodik ko‘nikma, ijrochilik, kreativlik, raqamli kompetensiya.*

Научно-теоретические основы развития профессиональных навыков учителей музыки

Ахмаджонова Малохат Аброр кизи,
Национальный институт педагогического мастерства имени Абдуллы Авлони
Докторант I курса базовой докторантуры

Аннотация: *В статье анализируются научно-теоретические основы развития профессиональных навыков учителей музыки с позиции интеграции педагогической, методической, музыкально-исполнительской, коммуникативной, креативной, рефлексивной и цифровой деятельности. Раскрывается значение компетентностного, личностно-ориентированного, деятельностного, интегративного и рефлексивного подходов в профессиональной подготовке учителя музыки. Проанализированы научные источники, труды по методике преподавания музыки, а также нормативно – правовые документы Республики Узбекистан, регулирующие сферу образования и профессиональную деятельность педагогов. Автор предлагает рассматривать профессиональные навыки не как изолированные качества, а как целостную систему, развивающуюся по последовательности “знания – практическое действие – творческое применение – рефлексия – совершенствование”.*

Обосновывается структурная модель развития профессиональных навыков учителя музыки и критерии их оценки. В результате научно аргументируется необходимость взаимосвязи теоретической подготовки с педагогической практикой, исполнительской деятельностью, цифровыми средствами и индивидуальной траекторией профессионального развития.

Ключевые слова: *музыкальное образование, профессиональные навыки, профессиональная компетентность, педагогическое мастерство, методические навыки, исполнительство, креативность, цифровая компетентность.*

Scientific and theoretical foundations for developing music teachers' professional skills

Ahmadjonova Malohat Abror qizi,
First-year Doctoral Student of the Basic Doctoral Programme National Institute of Pedagogical Mastery named after Abdulla Avloni

Abstract: *This article analyzes the scientific and theoretical foundations for developing professional skills of Music teachers through integrating pedagogical, methodological, musical-performing, communicative, creative, reflective and digital activities. The study explores the role of competency-based, learner-centered, task-based, integrative and reflective approaches in the professional preparation of Music teachers. The article reviews scientific literature, sources on methods of teaching Music, and regulatory documents of the Republic of Uzbekistan governing education and teachers' professional activity. The author proposes interpreting professional skills not as isolated qualities, but as an integrated coherent system developed through the sequence of "knowledge - practical action - creative application - reflection - improvement". Additionally, the study substantiates a structural model for developing professional skills of Music teachers and corresponding assessment criteria. It discusses that theoretical preparation should be systematically connected with teaching practice, performing activity, digital tools and an individual professional development trajectory. The proposed approach can serve as a theoretical basis for designing diagnostic instruments, professional development programs and methodological support for Music teachers.*

Keywords: *music education, professional skills, professional competence, pedagogical mastery, methodological skills, performance, creativity, digital competence.*

Bugungi ta'lim makonida pedagog faoliyatining mazmuni tez o'zgarib bormoqda. Raqamli texnologiyalarning kengayishi, ta'lim mazmunining kompetensiyaviy yo'nalishga o'tishi, o'quvchi shaxsining individual imkoniyatlarini hisobga olishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi o'qituvchidan faqat predmetga oid bilimlarni egallashni emas, balki ularni turli pedagogik vaziyatlarda samarali qo'llash, ta'lim jarayonini loyihalash, o'quvchini ijodiy faoliyatga jalb etish va o'z faoliyatini refleksiv tahlil qilishni talab etmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning asosiy prinsiplari, ta'lim olish imkoniyatlarining tengligi, ta'limning uzluksizligi va izchilligi hamda ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish uchun huquqiy asoslar belgilangan [1]. Mazkur talablar o'qituvchining kasbiy tayyorgarligini muntazam takomillashtirish masalasini dolzarb qiladi.

2026-yilda "O'zbekiston-2030" strategiyasining yangi bosqichini belgilagan PF-21-son Farmon bilan strategik maqsadlarni zamonaviy global o'zgarishlar va yangi chaqiriqlarga moslashtirish, samaradorlik ko'rsatkichlarini yangilash hamda monitoring jarayonlarini raqamlashtirish vazifalari belgilandi [4]. Ta'lim sohasidagi ushbu strategik yo'nalishlar pedagogning kasbiy faoliyatida raqamli, analitik va refleksiv

ko‘nikmalarning ahamiyatini yanada oshiradi. Shuningdek, “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi O‘RQ-901-son Qonun pedagogning huquq va majburiyatlari, kasbiy faoliyatining kafolatlari, mehnatiga yarasha rag‘batlantirish va kasbiy sha’nini himoya qilish masalalarini huquqiy jihatdan mustahkamladi [2]. Demak, pedagogning kasbiy rivojlanishi nafaqat metodik ehtiyoj, balki ta’lim siyosatining muhim tarkibiy yo‘nalishidir.

Musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyati esa umumiy pedagogik faoliyatdan o‘zining badiiy-estetik, ijrochilik va tarbiyaviy xususiyatlari bilan farqlanadi. Musiqa darsida bilim berish, kuylash, tinglash, musiqiy asarni tahlil qilish, ritmik harakat, ijodiy topshiriq va jamoaviy ijro bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘ladi. Shu sababli musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalari ham ko‘p komponentli tizimni tashkil etadi. G.Sharipova va Z.Xodjayeva tomonidan ishlab chiqilgan “Musiqa o‘qitish metodikasi” darsligi bo‘lajak musiqa madaniyati o‘qituvchilari egallashi zarur bo‘lgan bilim, malaka va ko‘nikmalar minimumini belgilashga qaratilgan bo‘lib, unda zamonaviy islohotlar, innovatsion texnologiyalar va ijodiy faollikni oshirishga doir yondashuvlar ham hisobga olingan [9].

Q.B. Panjiyevning 2026-yilda chop etilgan tadqiqotida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda kompetensiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, integrativ va innovatsion yondashuvlarning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Muallif pedagogik, metodik, ijrochilik, kommunikativ va raqamli kompetensiyalarni kompleks rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi [8]. Mazkur fikrlar bizning tadqiqotimiz uchun metodologik tayanch bo‘lib, biroq ushbu maqolada e’tibor “kompetentlik”ning umumiy tavsifidan ko‘ra, uni real faoliyatda namoyon qiluvchi kasbiy ko‘nikmalarning tarkibi va rivojlanish mexanizmiga qaratiladi.

Tadqiqotning maqsadi – musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlash, ularning tarkibiy tuzilmasini asoslash va kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning integrativ modelini taklif etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari: kasbiy ko‘nikma va kasbiy kompetentlik tushunchalarining mazmuniy munosabatini aniqlash; musiqa o‘qituvchisining kasbiy faoliyatiga xos ko‘nikmalarni tasniflash; zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ushbu ko‘nikmalar rivojiga ta’sirini tahlil qilish; O‘zbekistondagi normativ-huquqiy talablarning mazkur jarayondagi o‘rnini ko‘rsatish; kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va baholashning mualliflik modelini taklif qilish.

Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetentlik odatda bilim, ko‘nikma, malaka, tajriba, munosabat va kasbiy faoliyatga tayyorlikning o‘zaro bog‘langan tizimi sifatida talqin qilinadi. Raven kompetensiyani zamonaviy jamiyatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishga imkon beradigan sifatlar majmui bilan bog‘laydi [11]. Spencer esa kompetensiyani yuqori natijaga olib keluvchi individual xususiyatlar bilan izohlaydi [12]. Perrenoud kompetensiyani bilimni shunchaki egallash emas, balki murakkab vaziyatlarda mavjud resurslarni safarbar etish qobiliyati sifatida ko‘radi [6]. Ushbu yondashuvlardan kelib chiqib, kasbiy ko‘nikmani kompetentlikning faoliyatda bevosita namoyon bo‘ladigan operatsion komponenti sifatida qarash maqsadga muvofiq.

Bizningcha, musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmasi – bu o‘qituvchining musiqiy, pedagogik va metodik bilimlarini muayyan ta’limiy vaziyatda mustaqil, maqsadga muvofiq, ijodiy va refleksiv tarzda qo‘llay olish qobiliyatidir. Bu ta’rifning muhim jihati shundaki, ko‘nikma faqat “bajarish” bilan cheklanmaydi: u vaziyatni anglash, usulni tanlash, faoliyatni bajarish, natijani baholash va zarur bo‘lsa, fao-

liyatni qayta tashkil etish bosqichlarini ham qamrab oladi.

Shulman o'qituvchining kasbiy bilimlarini o'qitilayotgan predmet mazmunini bilish bilan cheklamasdan, uni o'quvchiga qanday tushunarli shaklda taqdim etish bilan bog'laydi. Uning "pedagogical content knowledge" konsepsiyasi o'qituvchi bilimining predmet mazmuni va uni o'qitish usullari kesishmasida shakllanishini ko'rsatadi [7]. Musiqa ta'limida bu g'oya, ayniqsa, muhim: o'qituvchi musiqiy asarni bilishi yoki ijro eta olishi bilan birga, uning obrazli mazmunini yosh xususiyatlariga mos pedagogik vositalar orqali ochib bera olishi kerak.

Demak, kasbiy ko'nikmaning rivojlanishi "bilish – bajarish – pedagogik vaziyatga moslashtirish – ijodiy qayta ishlash – refleksiya" zanjirida kechadi. Mazkur zanjir maqolamizning mualliflik konseptual yangiligi sifatida taklif qilinmoqda.

Musiqa fani o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalari tarkibi

Musiqa o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalarini bir necha o'zaro bog'liq guruhlarga ajratish mumkin. Birinchi guruh – pedagogik-tashkiliy ko'nikmalar. Ular dars maqsadini belgilash, ta'lim jarayonini tashkil etish, sinf bilan ishlash, o'quvchilar faolligini boshqarish, tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirish va ta'lim natijasini tahlil qilishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi guruh – metodik ko'nikmalar. Bunga musiqiy materialni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga mos tanlash, darsning mazmuni va metodlarini loyihalash, tinglash, kuylash, ijro, musiqiy savodxonlik va ijodiy faoliyatni o'zaro bog'lash, baholash mezonlarini ishlab chiqish kiradi. Sharipova va Xodjayeva darsligida bo'lajak musiqa o'qituvchilari egallashi zarur bo'lgan bilim, malaka va ko'nikmalar minimumining belgilanganligi ushbu guruhning kasbiy tayyorgarlikdagi ahamiyatini ko'rsatadi [9].

Uchinchi guruh – musiqiy-ijrochilik ko'nikmalari. Vokal ijro, cholg'u asbobida ijro, dirijyorlik, ansambl va xor bilan ishlash, musiqiy asarni ifodali talqin qilish, eshitish va ritmni nazorat qilish kabi ko'nikmalar musiqa o'qituvchisining kasbiy faoliyatida alohida ahamiyatga ega. Chunki o'qituvchining shaxsiy ijrosi ko'pincha o'quvchi uchun bevosita namuna vazifasini bajaradi.

To'rtinchi guruh – kommunikativ ko'nikmalar. Musiqiy obraz va tushunchalarni aniq, obrazli va ta'sirchan ifodalash, o'quvchi fikrini tinglash, savol-javobni tashkil etish, xor va ansambl faoliyatini boshqarish, sahna va ijodiy muhitni yaratish mazkur guruhga kiradi.

Beshinchi guruh – kreativ ko'nikmalar bo'lib, ular yangi topshiriqlar yaratish, improvizatsiya, noodatiy pedagogik yechim topish, musiqa va boshqa san'at turlarini integratsiyalash kabi faoliyatlarda namoyon bo'ladi.

Oltinchi guruh – raqamli ko'nikmalar. S.V. Panyukova ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni pedagogik jarayonning zamonaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi vosita sifatida ko'rib chiqadi [13]. Musiqa ta'limida bu ko'nikmalar audio-video materiallarni tanlash, nota yozish dasturlaridan foydalanish, raqamli ovoz yozish, multimedia taqdimotlari, onlayn platformalar va virtual cholg'u vositalaridan maqsadli foydalanishni qamrab oladi.

Yettinchi guruh – refleksiv ko'nikmalar. O'qituvchi o'z darsini, ijrosini, kommunikativ uslubini va o'quvchi natijalarini tahlil qila olishi, kamchiliklarini aniqlashi va keyingi faoliyatini takomillashtirish rejasini tuzishi lozim. Shu sababli refleksiya kasbiy rivojlanishning yakuniy emas, balki uzluksiz siklini ishga tushiruvchi mexanizm sifatida qaralishi kerak.

1-jadval.

Musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalari tarkibi va rivojlantirish vositalari

Ko‘nikmalar guruhi	Asosiy mazmun	Namoyon bo‘lish shakli	Rivojlantirish vositasi
Pedagogik-tashkiliy	Maqsad qo‘yish, darsni tashkil etish, sinfni boshqarish	Dars loyihasi, ochiq dars	Keys, amaliy mashg‘ulot
Metodik	Metod va mazmunni tanlash, baholash	Dars ishlanmasi, metodik tahlil	Mikrodars, loyiha
Musiqiy-ijrochilik	Vokal, cholg‘u, dirijyorlik, talqin	Jonli ijro, ansambl	Ijro mashg‘ulotlari
Kommunikativ	Muloqot, tinglash, fikrni ifodalash	Suhbat, xor/ansambl boshqaruvi	Rol o‘ynash, munozara
Kreativ	Improvizatsiya, yangi g‘oya, ijodiy yechim	Ijodiy topshiriq	Loyiha, improvizatsiya
Raqamli	Audio-video, multimedia, nota dasturlari	Raqamli dars resursi	AKT laboratoriyasi
Refleksiv	O‘z faoliyatini tahlil qilish	Refleksiv kundalik, portfolio	O‘z-o‘zini baholash

Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodologik yondashuvlari

Kompetensiyaviy yondashuv kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi uzviylikni ta’minlaydi. Musiqa ta’limida talaba musiqa nazariyasi, solfedjio, xor dirijyorligi, vokal, cholg‘u ijrochiligi va metodika fanlarida egallagan bilimlarini alohida fanlar doirasida qoldirmasdan, maktab darsi sharoitida qo‘llashga o‘rganishi kerak [8; 9].

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv o‘quvchilarning musiqiy qobiliyati, eshitish darajasi, ovoz imkoniyati, musiqiy xotirasi va ijodiy qiziqishlaridagi farqlarni hisobga olishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan bo‘lajak va amaldagi musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmasi universal bir xil algoritmni takrorlash emas, balki pedagogik vaziyatga mos metodni tanlash qobiliyati bilan belgilanadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv ko‘nikmani faoliyatning o‘zida shakllantirishni nazarda tutadi. Shuning uchun ma’ruza bilan cheklangan tayyorgarlik musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini to‘liq rivojlantira olmaydi. Mikrodarslar, pedagogik keyslar, ijodiy loyihalar, ochiq darslar, ijrochilik mashg‘ulotlari va pedagogik amaliyot ko‘nikmaning real sharoitda shakllanishiga xizmat qiladi.

Integrativ yondashuv musiqa pedagogikasining pedagogika, psixologiya, san’atshunoslik, tarix, adabiyot va axborot texnologiyalari bilan aloqasini kuchaytiradi. Masalan, xalq qo‘shig‘ini o‘rgatishda uning tarixiy kelib chiqishi, matni, musiqiy tuzilishi, ijro uslubi va tarbiyaviy mazmunini birgalikda tahlil qilish o‘qituvchidan fanlararo ko‘nikmalarni talab qiladi.

Refleksiv yondashuv esa kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishni uzluksiz siklga aylantiradi: faoliyat – natija – tahlil – xulosa – yangi reja – qayta faoliyat. Shu sababli refleksiv kundalik, portfolio va o‘z-o‘zini baholash varaqalari kasbiy rivojlanishning yordamchi vositalari emas, balki tizimning ichki mexanizmi sifatida qaralishi lozim.

Normativ-huquqiy asoslar va kasbiy rivojlanish talablari

O‘zbekiston Respublikasining "Ta'lim to‘g‘risida"gi O‘RQ-637-son Qonuni ta'lim sohasidagi munosabatlarning asosiy huquqiy poydevorini belgilaydi. Qonunda ta'limning uzluksizligi va izchilligi, ta'lim olish shakllarining xilma-xilligi, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash kabi tamoyillar o‘qituvchining zamonaviy kasbiy tayyorgarligini taqozo etadi [1]. Shu nuqtayi nazardan musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish umumiy ta'lim siyosatining mazmunidan kelib chiqadigan zaruratdir.

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-fevraldagi O‘RQ-901-son "Pedagogning maqomi to‘g‘risida"gi Qonuni pedagogning kasbiy faoliyatini huquqiy jihatdan himoya qilish bilan bir qatorda uning kasbiy faoliyatiga qo‘yiladigan mas'uliyatni ham mustahkamlaydi [2]. Mazkur qonun doirasida pedagogning huquqlari, majburiyatlari, kasbiy sha'ni va faoliyatining kafolatlari belgilangan. Bizningcha, ushbu huquqiy asos musiqa o‘qituvchisining kasbiy rivojlanishiga "bir martalik malaka oshirish" sifatida emas, balki uzluksiz kasbiy o‘sish jarayoni sifatida qarashni talab etadi.

2024-yil 21-iyundagi PQ-231-son qaror bilan xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy etish bo‘yicha chora-tadbirlar belgilangan [3]. Ushbu hujjat mazmunidan kelib chiqib, pedagogning kasbiy ehtiyojlarini aniqlash, malaka oshirishni ehtiyojga mos tashkil etish va kasbiy rivojlanish natijalarini baholash mexanizmlarini takomillashtirish zarur.

2026-yil 16-fevraldagi PF-21-son Farmon bilan "O‘zbekiston-2030" strategiyasining yangi bosqichida samaradorlik ko‘rsatkichlarini yangilash, monitoringni raqamlashtirish va strategik maqsadlarni zamonaviy chaqiriqlarga moslashtirish vazifalari belgilangan [4]. Mazkur yo‘nalish musiqa o‘qituvchisining raqamli ko‘nikmalarini rivojlantirish, kasbiy faoliyat natijalarini ma'lumotlar asosida tahlil qilish va individual rivojlanish trayektoriyasini shakllantirishga bevosita metodologik asos bo‘la oladi.

Shuningdek, 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan maktab ta'limi bo‘yicha davlat dasturlarida zamonaviy pedagogik yondashuvlar, ta'lim sifatini oshirish va o‘qituvchilarning uzluksiz kasbiy rivojlanishiga doir vazifalar belgilangan [4]. Shu sababli musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli davlat ta'lim siyosatining umumiy yo‘nalishlari bilan uyg‘un bo‘lishi lozim.

Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirishning mualliflik modeli


Tahlil qilingan manbalar va normativ-huquqiy talablar asosida biz musiqa fani o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishni besh komponentli tizim sifatida taklif qilamiz: motivatsion-maqsadli, kognitiv, amaliy-faoliyatli, kreativ-kommunikativ va refleksiv-raqamli komponentlar. Ushbu modelda komponentlar ketma-ket emas, balki o‘zaro ta'sir qiluvchi tizim sifatida qaraladi.

Motivatsion-maqsadli komponent o‘qituvchining kasbiy rivojlanishga ichki ehtiyoji, musiqa ta'limining ijtimoiy-madaniy vazifalarini anglash va individual rivojlanish maqsadini belgilashni qamrab oladi. Kognitiv komponent musiqiy-nazariy, pedagogik, metodik va raqamli bilimlar tizimini anglatadi. Amaliy-faoliyatli komponent bilimlarni dars, ijro, muloqot va pedagogik vaziyatlarda qo‘llashni nazarda tutadi.

Kreativ-kommunikativ komponent yangi pedagogik g‘oyalarni yaratish, improvizatsiya qilish, o‘quvchilar bilan samarali muloqot o‘rnatish va badiiy-estetik muhit yaratishni ifodalaydi. Refleksiv-raqamli komponent esa faoliyat natijalarini tahlil qilish, raqamli vositalardan foydalanib kasbiy faoliyatni takomillashtirish va keyingi rivojlanish yo‘nalishini belgilashni qamrab oladi.

Mualliflik yondashuvining yangiligi shundan iboratki, kasbiy ko‘nikmalarni faqat ko‘nikmalar ro‘yxati sifatida emas, balki rivojlanish sikli sifatida ko‘ramiz. Ushbu sikl quyidagi ko‘rinishda amalga oshiriladi. Bunda har bir bosqich keyingisini tayyorlaydi va natija yangi rivojlanish ehtiyojini yuzaga chiqaradi.

Baholashda faqat nazariy testlardan foydalanish yetarli emas. Portfolio, ochiq dars, videodars tahlili, ijodiy loyiha, ijrochilik topshirig‘i, pedagogik keys, o‘z-o‘zini baholash va ekspert bahosi birgalikda qo‘llansa, kasbiy ko‘nikmaning real holatini aniqlash imkoniyati oshadi. Panjiyev tadqiqotida ham portfolio, ijodiy loyiha, ochiq dars, amaliy topshiriq va refleksiv kundalik kabi vositalarning kompleks baholashdagi imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan [8].



1-rasm. Musiqa fani o‘qituvchilarining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishning siklik modeli
Izoh: Modelda ko‘rsatilgan oltita bosqich o‘zaro uzviy bog‘langan bo‘lib, jarayon uzluksiz va takrorlanuvchi xarakterga ega.

Kasbiy ko‘nikmalarni baholash mezonlari

Kasbiy ko‘nikmalarni rivojlantirish tizimi diagnostikasiz to‘liq bo‘la olmaydi. Bizningcha, musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini baholashda to‘rtta mezon asosiy bo‘lishi mumkin: mustaqillik, moslashuvchanlik, ijodkorlik va refleksivlik. Mustaqillik o‘qituvchining topshiriqni tayyor algoritmsiz bajara olishini; moslashuvchanlik turli o‘quvchi va vaziyatlarga mos usul tanlashini; ijodkorlik yangi yechim va topshiriqlar yaratishini; refleksivlik esa faoliyat natijasini tahlil qilib, keyingi qadamni belgilashini ko‘rsatadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda asosiy muammo alohida ko‘nikmalarni shakllantirishning o‘zi emas, balki ularni yagona kasbiy faoliyatga integratsiyalashdir. Masalan, kuchli ijrochilik ko‘nikmasiga ega o‘qituvchi metodik jihatdan tayyor bo‘lmasa, o‘z ijrosini o‘quvchi faoliyatiga aylantirishda qiyinchilikka duch kelishi mumkin. Aksincha, metodik bilimlari kuchli, biroq ijrochilik ko‘nikmalari yetarli bo‘lmagan o‘qituvchi mu-

2-jadval

Musiqa o'qituvchisining kasbiy ko'nikmalarini baholashning darajaviy mezonlari

Daraja	Asosiy belgi	Indikator	Tavsiya etiladigan topshiriq
Boshlang'ich	Bilimni reproduktiv qo'llash	Tayyor namuna asosida bajarish	Oddiy dars rejasi
O'rta	Bilimni vaziyatga moslashtirish	Metod tanlash va amaliy qo'llash	Pedagogik keys
Yuqori	Mustaqil va ijodiy faoliyat	Yangi yechim, improvizatsiya	Ijodiy loyiha
Yuqori-refleksiv	Faoliyatni tahlil va takomillashtirish	O'z xatosini aniqlash, yangi strategiya	Portfolio va videodars tahlili

siqa darsining badiiy-amaliy imkoniyatlaridan to'liq foydalana olmaydi.

Shu sababli biz "kasbiy ko'nikmalarning integrativ muvozanati" tushunchasini taklif qilamiz. Uning mazmuni pedagogik, metodik, ijrochilik, kommunikativ, kreativ, raqamli va refleksiv ko'nikmalarning bir-birini to'ldirishi va birortasining haddan tashqari ustunligi kasbiy faoliyat samaradorligini avtomatik ravishda kafolatlamasligini anglatadi. Bu yondashuv musiqa o'qituvchisini "yaxshi ijrochi" yoki "yaxshi metodist" sifatida emas, balki turli kasbiy funksiyalarni uyg'un bajara oladigan integrativ mutaxassis sifatida ko'rishga imkon beradi.

Raqamlashtirish sharoitida yana bir muhim masala – texnologiyani maqsad emas, pedagogik natijaga olib boruvchi vosita sifatida qo'llashdir. Panyukova ta'limda AKTdan foydalanishning didaktik imkoniyatlarini ko'rsatgan bo'lsa [13], musiqa ta'limida bu imkoniyatlar audio va video tahlil, nota materiallari, raqamli ijro, masofaviy hamkorlik va mustaqil ijodiy topshiriqlar bilan boyitilishi mumkin. Biroq raqamli vosita jonli musiqiy muloqot, o'qituvchining ijrosi va bevosita pedagogik ta'sirni to'liq almashtirmasligi kerak.

Musiqa ta'limining milliy-madaniy vazifasi ham kasbiy ko'nikmalar mazmuniga kiritilishi lozim. O'qituvchi xalq qo'shiqlari, maqom, mumtoz kuylar va zamonaviy musiqiy janrlarni o'zaro bog'lay olishi, ularning badiiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib bera olishi zarur. Shunday qilib, milliy musiqa merosini zamonaviy metodlar bilan uyg'unlashtirish nafaqat metodik, balki madaniy-kommunikativ kasbiy ko'nikmani ham shakllantiradi.

Musiqa fani o'qituvchilarining kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogik, metodik, musiqiy-ijrochilik, kommunikativ, kreativ, raqamli va refleksiv faoliyatlarning integratsiyasiga asoslanishi lozim. Tahlil qilingan ilmiy manbalar va normativ-huquqiy hujjatlar o'qituvchining kasbiy rivojlanishini uzluksiz, amaliyotga yo'naltirilgan va individual ehtiyojlarga mos jarayon sifatida tashkil etish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijasida kasbiy ko'nikma kasbiy kompetentlikning amaliy-operatsion komponenti sifatida talqin qilindi. Mualliflik ta'rifiga ko'ra, musiqa o'qituvchisining kasbiy ko'nikmasi – musiqiy, pedagogik va metodik bilimlarni muayyan ta'limiy vaziyatda mustaqil, maqsadga muvofiq, ijodiy va refleksiv tarzda qo'llay olish qobiliyatidir.

Maqolaning ilmiy yangiligi sifatida kasbiy ko'nikmalarni "bilim – amaliy harakat – ijodiy qo'llash – refleksiya – takomillashtirish" zanjirida rivojlanadigan integrativ tizim sifatida ko'rish, shuningdek "diagnostika – maqsadli

rivojlantirish – amaliy qo‘llash – ijodiy qayta ishlash – refleksiya – qayta diagnostika” siklini taklif qilish mumkin. Ushbu model pedagogik amaliyot, malaka oshirish, metodik xizmat va oliy ta’limdagi kasbiy tayyorgarlik jarayonlarida qo‘llanishi mumkin.

Amaliy tavsiya sifatida musiqa o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanish dasturlarida mikrodars, ijrochilik topshiriqlari, pedagogik keyslar, ijodiy loyihalar, raqamli dars resurslari, portfolio va refleksiv tahlilni yagona tizimga birlashtirish maqsadga muvofiq. Bunda o‘qituvchining individual kasbiy rivojlanish trayektoriyasi aniqlanib, diagnostika natijalariga ko‘ra metodik va ijrochilik yo‘nalishlarida differensial qo‘llab-quvvatlash tashkil etilishi lozim.

Shunday qilib, musiqa o‘qituvchisining kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish faqat metodik mahoratni oshirish bilan chegaralanmaydi. U pedagogning musiqiy tafakkuri, ijrochilik madaniyati, kommunikativ salohiyati, kreativligi, raqamli savodxonligi va refleksiv pozitsiyasini yagona kasbiy tizimga birlashtirishni nazarda tutadi. Mazkur integrativ yondashuv musiqa ta’limining sifat va samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning badiiy-estetik, ijodiy va ma’naviy rivojlanishi uchun ham barqaror pedagogik sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-637-son, 23.09.2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi to‘g‘risida”gi Qonuni. O‘RQ-901-son, 01.02.2024.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Maktabgacha va maktab ta’limi tashkilotlari xodimlarini uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-231-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-21-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi “Maktabgacha va maktab ta’limini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-241-son qarori.
6. Perrenoud P. Construire des compétences dès l’école. – Paris: ESF Éditeur, 1997. – 128 p.
7. Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15. – No. 2. – P. 4–14. DOI: 10.3102/0013189X015002004.
8. Panjiyev Q.B. Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlar tahlili // Ta’limda istiqbolli izlanishlar. – Buxoro, 2026. – №7, 1-qism. – B. 55–60. ISSN: 3060-527X.
9. Sharipova G., Xodjayeva Z. Musiqa o‘qitish metodikasi: darslik. Toshkent: NIF MSH, 2020. – 136 b. ISBN 978-9943-7012-3-6.
10. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006. – 261 b.
11. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984. – 251 p.
12. Spencer L.M., Spencer S.M. Competence at Work: Models for Superior Performance. – New York: John Wiley & Sons, 1993. – 372 p.
13. Панюкова С.В. Использование информационных и коммуникационных технологий в образовании: учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений. – М.: Академия, 2010. – 222 с.
14. A.Avloniy nomidagi Pedagogik Mahorat Milliy Instituti – https://avloniy.uz